



## Turli tizimdagi tillarda kirish bo‘lakli gaplarning lingvopragmatik jihatlari qiyosiy tadqiqi

Qosimova Xusnuraxon Oybek qizi

ADChTI, doktorant

**Annotatsiya:** Hozirgi zamon tilshunosligida jadal rivojlanib borayotgan lingvopragmatika barcha tadqiqotlar markaziga aylandi. Har qanday til birligini lingvopragmatik tomondan tahlil qilish tilshunoslikning yangi qirralarini ochib bermoqda. Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan bo‘lgan kirish bo‘laklarning lingvopragmatik jihatlari ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosidagi tadqiq qilishga bag‘ishlanadi.

**Kalit so‘zlar:** pragmatika, pragmalingvistika, kirish bo‘laklar, adresant, ijobiy baho, salbiy baho, subyektiv baho, aksiologik baho.

Insonning subyektiv ruhiyatini aks ettiruvchi diskurs ham pragmatikaning o‘rganish doirasiga kiradi. E. Benvenistning fikriga ko‘ra, so‘zlovchi va tinglovchiga taqozo qiluvchi va so‘zlovchining tinglovchiga qandaydir yo‘l bilan ta’sir qilish maqsadini aks ettiruvchi har qanday jumla diskurs sanaladi. Jumlaning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, obyektiv mazmun bilan ifodalangan shakl o‘rtasidagi munosabat, shakl va mazmun o‘rtasidagi tengsizlik holatining nutqdagi ta’siri kabi masalalar ham pragmatikaga kiradi.<sup>16</sup>

Odamlar o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatuvchi nutqiy odat (etiket), hurmat ifodalash usullari ham pragmatikaning o‘rganish sohasi sanaladi.

Pragmatikaning o‘rganish sohalaridan eng muhimi tag bilim (presuppozitsiya)dir. Masalan, *Ahmad keldi* jumlasidan qandaydir shaxsning kelganligi boshqalar uchun ma’lum bo‘lsa ham, lekin Ahmadning qanday shaxsligi, qayerdan-qayerga va nima maqsadda kelganligi haqidagi axborot qorong‘i bo‘ladi. So‘zlovchi va tinglovchining oldindan shunday ma’lumotga, umumiy bilish manbaiga ega bo‘lishi bevosita ifodalanadigan axborotning so‘zlovchilar uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi<sup>17</sup>.

Kirish so‘zlarning so‘zlovchi munosabatini aks ettirishi pragmalingvistikaning tahlil obyekti ekanligidan dalolat beradi. O‘zbek tilshunosligida “kirish konstruksiyalar”<sup>18</sup>

<sup>16</sup> Benveniste, E. On Discourse [Text] // E. Benveniste// The Theoretical Essays: Film, Linguistics, Literature. – Manchester: Manchester Univ. Press, 1985.

<sup>17</sup> Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. –T.: «O‘qituvchi», 1995. –B.5-7.

<sup>18</sup> Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1965. –Б. 316.



(A.G'ulomov, M.Asqarova,), “kirish qurilmalar”<sup>19</sup> (B.O‘rinboyev), “kirish so‘z”<sup>20</sup>(M.Mirzayev, S.Usmonov, I. Rasulov), “kirishlar”<sup>21</sup> (H.Holiqov, N.Mahmudov, A.Nurmonov) nomlari bilan atalib kelingan bu sintaktak shakl munosabatni ifodalovchi so‘zlar bo‘lgani bois oldingi boblarda ta’kidlaganimizdek, nutq egasi tomonidan voqelik va ish-harakatga ijobiy yoki salbiy baho berishi bilan xarakterlanadi. Bunday vaziyatda kirish so‘zlar pragmlingvistikaning o‘rganish obyekti sanaladi.

Kirish so‘zlar, asosan, dialogik nutqda namoyon bo‘ladi hamda “so‘zlovchining subyektiv munosabatini, emotsional munosabatini ifodalaydi”<sup>22</sup>.

Bu munosabat doirasida nutq vaziyati bilan bog‘liq holda propozitsiyani ifodalashi nafaqat semantik-sintaktik, balki pragmlingvistik aspektga ham oid muammo sanaladi. Shu jihatdan kirish so‘zlarning pragmatik vazifasi doirasini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Kirish so‘zlar adresantning baho munosabatini ifoda etib, pragmatik vazifa bajaradi.
2. Kirish so‘zlar subyektning gapdan anglashilgan voqelikka nisbatan turli xil munosabatni ko‘rsatishi bilan pragmatik vazifa bajaradi.
3. Kirish so‘zlar vazifasida kelgan modal so‘zlar, ayrim fe‘l, olmosh, yuklamalar va tartib sonlar nutqiy muloqot jarayonida qo‘llanganda pragmatik vazifa bajaradi.

Kirish so‘zlar muloqot jarayonida qo‘llanganda, eng muhim, qaysidir jihatlari bilan birlamchi bo‘lgan voqelikka nisbatan ijobiy yoki salbiy bahoni aks ettiradi. S.Boymirzayevaning qayd etishicha, “baho obyektning ahamiyatli tomoni, qiymatini belgilash faoliyati jarayonidir. Ushbu jarayon subyekt tomonidan bajarilib, uning asosida ma’lum bir namuna yotadi hamda obyektga shu namuna doirasida ijobiy yoki salbiy sifat-baho beriladi”<sup>23</sup>. Shu o‘rinda subyektiv bahoning bir turi-aksiologik baho namunasi yuzaga chiqadi.

Shuningdek, kirishlar baho ifodalovchi birikma tarzida kelishi baholash faoliyatining o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi xarakterlanadi. Z. Pardayev ta’kidicha, “kirishlarning baho munosabatini ifodalashi, bir tomondan, ayrim o‘rinlarda ijobiy yoki salbiy ma’noning

<sup>19</sup> Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. —Самарқанд, 2001. —Б. 117.

<sup>20</sup> Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. — Тошкент: Ўқитувчи, 1978. — Б. 200 -203.

<sup>21</sup> Холиков Х. Ҳозирги ўзбек адабий тилида мураккаблашган содда гаплар услубияти\\Филол.фанлари номз.дис... автореф. —Тошкент, 1993. — Б. 22.

<sup>22</sup> Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. —Самарқанд, 2001. —Б.96.

<sup>23</sup> Боймирзаева С. Аксиологик модалликнинг матнда воқеланиши// Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. —№4. —Б. 85-88.



to'g'ridan-to'g'ri bo'rtib chiqishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, matn bilan aloqador bo'ladi"<sup>24</sup>Quyidagi misollardagi kirish bo'laklarini ko'rib chiqsak:

Ijobiy baho munosabati:

*Fortunately, it was not a serious disease anyway if you took it in time, they said.*

*(Hemingway E. 103 p.)*

*Yaxshiyamki, unda zaxm yo'q ekan, har holda vaqtida oldini olsang, unchalar xavfli emas. (G'afurov I. tarjimasi 244 b.)*

Salbiy baho munosabati:

*Unfortunately, no garage man who had seen him came forward. (Hemingway E. 190 p.)*

*Afsuski, ustaxona egalari uni ko'rmaganliklarini aytishdi (G'afurov I. tarjimasi 330 b.)*

*I'm afraid, I am not a good host. (Fitzgerald S. 58 p.)*

*Attang, yaxshi mezbon bo'la olmabman-da. (Andug'aniyeva Z. tarjimasi 43b.)*

Shuningdek, Sh.Balli o'z tadqiqotlarida baho – obyektning «qiymatini idrok etish yoki shu qiymat haqidagi hukm» ekanligini qayd etgan<sup>25</sup>. Darhaqiqat, bahoning ijobiy yoki salbiy darajada ekanligini aniqlash uchun subyektning kognitiv faoliyati asosiy o'ringa chiqadi. Bu faoliyatning o'zi ham subyektiv, chunki ma'lum voqelikni baholayotgan shaxs unga nisbatan «tanqidiy nigoh» bilan qaraydi va o'z tanqidiy munosabatini bildiradi. Baho qutblari o'rtasidagi masofa ham shu munosabat doirasida belgilanadi. Nutq jarayonida subyektning nutq qaratilgan obyektga nisbatan baho munosabatining ijobiy, salbiy turlaridan tashqari betaraf (neytral) turi ham amal qiladi. Bahoning «betaraf» turi aksariyat otlarda muallifning voqelikka nisbatan munosabati faol bo'lmagan vaqtda yuzaga keladi.

Tilshunos olim Y.M.Volf «yaxshi» va «yomon» baho me'yorlari oraliqida «betaraf» baho berish imkoniyatini beruvchi birliklar guruhini ajratishni taklif qiladi<sup>26</sup>. Bunday birliklarga *odatda, odatdagicha, odat bo'yicha, odatga ko'ra* kirish so'zlari ham mansub bo'lib, ular qo'llangan gaplarda bo'yoqdorlik deyarli sezilmaydi:

<sup>24</sup> Пардаев З. Нутк инновацияси ва уларда баҳо муносабатининг ифодаланиши (сифат лексемалар асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. № 5. 106 б.

<sup>25</sup> Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. — М.: Иностранная литература, 1955. — Стр. 416.

<sup>26</sup> Вольф Е. Функциональная семантика оценки. — М.: Наука, 1985. — Стр. 274.



*Evidently, it did not matter whether I was there or not. (E.Hemingway. –7 p.)*

*Odatda, to‘g‘ri, mening bu yerda bor-yo‘qligimning hech ahamiyati yo‘q. (I.G‘ofurov tarjimasi. – 18-b.)*

*Involuntarily, I glanced seaward and distinguished nothing except a single green light, minute and far away, that might have been the end of a dock. (Fitzgerald S. 58 p)*

*Hoynahoy, bu sohil chetidagi belgi beruvchi chiroq bo‘lsa kerak, degan hayol bilan o‘girilib qaradim.( Andug‘aniyeva Z. tarjimasi 43b.)*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kirish so‘zlar subyektiv munosabat bilan bog‘liq holda – aksiologik bahoning ifodalovchisi sifatida – badiiy matnda ishtirok etadi. Aksiologik bahoning asosiy mundarijasi esa qadriyat sifatiga ega bo‘lgan voqelikni tasvirlash, baholash yo‘li bilan muallifning asosiy maqsadini adresat (tinglovchi, o‘quvchi)ga yetkazishdir. Bu esa pragmatik vazifa bajarilayotganligidan dalolat beradi<sup>27</sup>.

Shuningdek, kirish konstruksiyalar yuzasidan tadqiqot olin borayotgan yana bir tilshunos olim M. G‘. Hoshimov o‘z ilmiy ishida ingliz, rus va o‘zbek tillarida ”subyektiv-modal baho“ mikrokonseptining maxsuslashgan voqealantiruvchisi bo‘lgan kirish gapli qo‘shma gaplar turlarini tahlil qilib, ularni kommunikativ-pragmatik nutq aktlarida, muloqotda assessivlar(baholash akti) sifatida turli vaziyatlarda ko‘p qo‘llaniladigon turlarga ajratib quydagicha tasniflagan 1) konstativ (constative – ariza, xabar, deklaratsiya aktlari); 2) elativ(elative – xursandchilik akti ; 3) auditiv (auditive – eshitish akti); 4) konfessiv (confessive – iqrorlik akti); 5) menasiv (menasive – qo‘rqitish/qo‘rquv akti); 6) komitativ (committative – qasam, ont ichish akti), 7) imprekativ (imprecative – la‘natlash akti); 8) blessiv (blessive – yaxshi niyat akti); 9) despaysiv (despasive – nafratlanish akti); 10) akkleymativ (acclaimmative – maqullash akti); 11) insentiv (incentive – rag‘batlantirish akti); 12) regrettiv (regressive – achinish, kuyinish akti) va h.k. lar aniq misollar bilan dalillangan.<sup>28</sup>

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

<sup>27</sup> Бойматоева Д. Кириш сўзлар ва аксиологик бахонинг прагматик вазифаси // “Filologiya masalalai” ilmiy-amaliy respublika onlayn konferensiya materiallari, – Andijon, 2020. – Стр. 25-27.

<sup>28</sup> Хошимов М. “Кириш гапли қўшма гап тилда гапнинг инвариант тури сифатида” филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати, – Фарғона, 2021. 23 б;



1. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Иностранная литература, 1955. – Стр. 416.
2. Боймирзаева С. Аксиологик модалликнинг матнда воқеланиши// Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. –№4. –Б. 85-88.
3. Бойматоева Д. Кириш сўзлар ва аксиологик баҳонинг прагматик вазифаси // “Filologiya masalalai” ilmiy-amaliy respublika onlayn konferensiya materiallari, – Andijon, 2020. – Стр. 25-27.
4. Вольф Е. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985. – Стр. 274.
5. Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1965. –Б.316.
6. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: «Ўқитувчи», 1995. –Б.5
7. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 200 -203.
8. Пардаев З. Нутқ инновацияси ва уларда баҳо муносабатининг ифодаланиши (сифат лексемалар асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010.№ 5.106 б.
9. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Самарқанд, 2001. –Б. 117.
10. Ҳолиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилида мураккаблашган содда гаплар услубияти\\Филол.фанлари номз.дис... автореф. –Тошкент, 1993. – Б. 22.
11. Хошимов М. “Кириш гапли қўшма гап тилда гапнинг инвариант тури сифатида” филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати, – Фарғона, 2021. 23 б;
12. Benveniste, E. On Discourse [Text] // E. Benveniste// The Theoretical Essays: Film, Linguistics, Literature. – Manchester: Manchester Univ. Press, 1985.